



O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI

Atkiyoyeva Ruxshona

Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va san'at yo'nalishi

1- bosqich magistri

e-mail: ruxshonaatkiyoyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454954>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Katta ashulaning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, XX asr „hamnafaslari“, qolaversa, bir-qancha Katta ashulaning mohir ijrochilari haqida fikrlar yuritiladi.. Shuningdek, Katta ashulani o'zbek va jahon sahnalarida tutgan o'rni, tinglovchi ongi va psixikasiga nisbatan ijobiy ta'sirlari haqida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Katta ashula, ashula, patnis ashula, „Ey, sanam“, „Chorgoh“, Yovvoyi ushshoq, masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas.

O'zbek xalqining ko'p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida **katta ashula** janri salmoqli o'rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo'lib, asosan Farg'ona vodiysiga xos, ikki-to'rt ijrochi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz ijro etilgan. Katta ashula deb nomlanishiga sabab – bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidir. Uni xalq orasida „patnis ashula“ yoki „patnusaki ashula“ deb ikkinchi nom bilan ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'llariga patnis yoki likobcha (tarelka) ushlab, ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'lqinlatib, qochirmalar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi. Bundan tashqari katta yeg'inlarda, to'y-tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga „katta ashula“ nomi berilgan deya taxminlar ilgari surilgan.¹

¹**O'zbek muntaz musiqasi. R.S.Abdullayev. Toshkent.2008-yil.**

Katta ashula ijrochidan zo'r qobilyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula janrining asosiy hususiyatlari:

1. Bir vohada shakllanib, rivijlanishi (Farg'ona vodiysida);
2. O'ziga xos ijro uslubi – ikki (yoki uch-besh) xonandalar tomidan cholg'u jo'rligisiz, galma-gal aytilishi;
3. Badihago'ylik;
4. So'z va kuy mittanosibligi;
5. Professional mahorat va qobiliyat mavjudligi;





6. Soʻz matnida nosheʻriy boʻgʻin va iboralardan (yor, voyey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa avjida);

7. Taʻsirchanlik;

8. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchi, balandligi, tembri, uslubi xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur);

9. Erkin talqin etish;

10. Ijro anʼanalariga boʻysunish va rioya qilish.

Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir-biriga mukammal va uzviy bogʻlanishini taʻminlaydi. Katta ashula ijrochilik sanʼati „ustoz-shogird“ maktanidan oʻtgan, sheʻriyat qonunlari va ijrochilik anʼanalariga tayangan.

Katta ashula oʻrta asrlarda marosim va mehnat qoʻshiq-aytimlari negizida, mumtoz sheʻriyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz gʻazallarni anʼanaviy oʻqish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi toʻrt tarkibiy qismdan iborat: daromad (boshlangʻich kuy tuzilmasi), oʻrta avj (oʻrta kuy tuzilmasi), avj (baland parda kuy tuzilmasi) va furovard (daromadga qaytish) yoki daromad-avj-furovard deyiladi. Baʼzi katta ashulalar oʻrta avj yoki katta (baland) avjdan ham boshlanishi mumkin.

Katta ashula mazmuni jihatidan 5 ta turga boʻlinadi:

1. Falsafiy;

2. Ishqiy-lirik;

3. Didaktik;

4. Diniy;

5. Zamonaviy.

Katta ashula taraqqiyotida masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas kabi poetik janrlar ham muhim roʻl oʻynaydi. Bunga misol tariqasida Miskinning „Ey, dilbari jononim“ sheʻrini keltirish mumkin:

Ey, dilbari jononim, koʻp nozu itob etma,

Yuz jabru jafo birla holimni xarob etma.

Mastona koʻzing birlan qoshing qilichin tortib,

Bir-biriga himo aylab, qatlimga xitob etma.

Aruz vaznida yozilgan ushbu gʻazal tinglovchilardan zavqu-shavq, turfa ruhiy kechinmalar uygʻotib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Aynan shunday gʻazallar katta ashulaning yanada umrboqiy boʻlishiga hizmat qiladi. Katta ashulada soʻz kuy bilan bir uslubda „nafas“ oladi. Ularda sheʻr va kuy bir-biriga shu qadar uygʻunlashib





,singib ketganki,kuyning o'zini alohida eshitganda she'rni ham tinglayotganday bo'lamiz.

Katta ashula janrining taraqqiyoti yo'lida uning tarkibi ham kengayib bordi. Katta ashulaning an'anaviy turidan (ikki hofiz tomonidan aytish) keyingi asrlarda uning turli xillari yuzaga kela boshladi. Xususan, katta ashula „yovvoyi maqom“-ayrim maqom sho'balarini (Ushshoq, Chorghoh, Bayot, Segoh va h.k) katta ashula yo'llarida jo'rsiz aytish ; katta ashula „yakkaxonlik“- ashula-cholg'u yo'li (hofiz va cholg'u ansambli jo'rligida); katta ashulaning cholg'u yo'llari (nay, surnay, g'ijjak, tanbur va dutor uchun). Bu turlari XIX asrdan boshlab Farg'ona vodiysida keng tarqaldi.

Katta ashula janri XX asrda o'zgacha ohang, mavzu, yangicha uslub kasb etdi. Uning an'anaviy va zamonaviy turlari yuzaga keldi, ijrochilik uslubi ham o'zgardi. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, katta ashulaning o'ziga hos bo'lgan jihatlarini qaysidir ma'noda „buzib“ talqin qiluvchi „san'atkorlar“ ham kundan kunga ko'paymoqda. Aynan shu tufayli, ushbu professional janr turi vaqt o'tgani sayin o'z hususiyati va asl mohiyati bilan jar ustiga kelib qoldi. O'z davrining nafaqat o'zbek xalqi balki, jahon minbarlarining cho'qqilarini zabt etgan buyuk „hamnafaslar“ Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar ismi hali hanuz kitob zarvarovqlarida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu ikkala katta ashula ijrochilari Marg'ilon ijrochilik maktabining yirik namoyondalaridir. Ularning „hamnafas“ deyilishiga asosiy sabab shundaki, ular tembr va ovoz diapozoni jihatidan bir-birga juda yaqin insonlar bo'lgan. Qolaversa, to bugungi kunga qadar ularga yetadigan darajada ijro mahoratini katta ashula orqali ko'rsatib beruvchi xofizlar deyarli uchramadi. Ushbu keng diapazonli, shirali, maftunkor va dovudiy ovoz sohiblari mazkur janr bo'yicha Fransiya, Italiya, Bolgariya va ko'plab mamlakatlarda o'z iste'dodlarini namoyish etgan. Ikkalar hamnafaslarning ijro etib kelgan katta ashula („Hanuz“, „Ohkim“, „Bog'aro“ , „Yovvoyi Chorghoh“, „Yor istab“ va boshqa) lar musiqiy xazinamizda mustahkam o'rin olgan.²

²A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova.O'zbek musiqasi tarixi.

Bugungi kunda maqom, folklor va baxshichilkka e'tibor berilishi bilan bir qatorda katta ashulaga nisbatan ham e'tibor kuzatilmoqda. Unga qiziquvchilar soni ham kam emas. Katta ashula YUNESKO tomonidan moddiy-madaniy me'ros ro'yhatiga kiritilgan. Va bu milliy o'zbek xalqi uchun yuksak sharaf va e'tirofdir. Ayni damda katta ashulani nafaqat O'zbekistonda, balki, chet el davlatlarida ham keng targ'ib qilish masalasi bo'yicha turli fikr va mulohazalar yuritilmoqda. Qolaversa, uni xalq ongi va tafakkuriga singdirish maqsadida har yili „Buyuk Ipak yo'li“ xalqaro festivalining repertuarlari ichidan katta ashula o'rin egallagan.





Bundan tashqari, Samarqandning Registon ansambli maydonida har ikki yilda bir marotaba Katta ashulla konkursi bo'lib o'tadi. Ushbu konkurs (bellashuv) chet el sayyohlari va o'zbek xalqi uchun "Open air" (ochiq osmon osti) da bepul namoyish etiladi.

Foydalanilgan adaniyotlar

- 1.O'zbek mumtoz musiqasi. R.S.Abdullayev. Toshkent.2008-yil.
- 2.O'zbek musiqa adabiyoti.N.Yuldasheva, N.Raxmatova. Toshkent. 2016-yil
- 3.Musiqa san'atining hozirgi kundagi o'rni. Maqola. M.Nasretdinova.2022-yil.
4. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi.

